

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN
SINFDAN TASHQARI ISHLAR**

Asatova Barfiya Faxridinovna

Buxoro davlat universiteti

Pedagogik ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasida

stajyor-tatqiqotchisi

barfiya.asatova@mail.ru

**МАТЕМАТИКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ
ЗАНЯТИЯ ВНЕ КЛАССА**

Asatova Barfiya Faxridinovna

Бухарский государственный университет

Факультет педагогического образования

Кафедра методики начального образования

стажер-исследователь

barfiya.asatova@mail.ru

**MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES
ACTIVITIES OUTSIDE THE CLASSROOM**

Asatova Barfiya Faxridinovna

Bukhara State University

Faculty of Pedagogical Education

Department of Primary Education Methodology

intern-researcher

barfiya.asatova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, ularning turlari, o'tkazish tartibi, to'garakka jalb qiluvchi o'quvchilarni qiziqitira olish yo'llari yoritilgan. Shuningdek maqolada matematik soatlarni o'tkazish taxminiy ishlanmasidan namuna berilgan. Qiziqarli matematika to'garaklardan matematik bellashuvlar o'tkazilish tartibi va o'tkazilgan bellashuv rasmlaridan lavhalar berilgan.

Kalit so'zlar: matematika, to'garak, bellashuv, mashg'ulot, guruh, o'quvchi, sinfdan tashqari ish.

Аннотация: В данной статье рассказывается об организации внеурочной деятельности по математике в начальных классах, их видах, порядке их проведения, а также способах заинтересовать учащихся, привлеченных в кружок. Также в статье приведен пример примерной разработки математических часов. Приведен порядок проведения математических олимпиад от интересных математических кружков и фотографии соревнований.

Ключевые слова: математика, кружок, соревнование, упражнение, группа, ученик, внеклассная работа.

Abstract: This article describes the organization of extracurricular activities in mathematics in elementary grades, their types, the procedure for conducting them, and ways to interest students who are attracted to the club. Also, the article provides an example of the approximate development of mathematical hours. The procedure for conducting mathematical competitions from interesting mathematics circles and pictures of the competitions are given.

Key words: mathematics, circle, competition, exercise, group, student, extracurricular work.

Kirish.

2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "2023-yil

Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berar ekanlar ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deb ta'kidlab o'tdilar. Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishiga erishishi, umumta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

O'quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashish uchun boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan havaslarini orttiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga, tanqidiy fikrlashga, o'zini namoyon etishda va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda, o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mantiqiy tafakkurini oshirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz.

Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sinfdan tashqari ishlarining ikki turi bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o'zlashtirishda orqada qoladigan o'quvchilar bilan ishlash, bunga qo'shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi.

Ikkinchisi, matematikani o'rganishga qiziquvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Ma'lumki birinchi tur mashg'ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg'ulotlarni 3-4 o'quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. O'quvchilarda matematikaga va uning tadbiqlariga qiziqish uyg'otish.
2. O'quvchilarning matematikadan dastur bo'yicha bilimlarini kengaytirish.
3. O'quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarni hosil qilish.
4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash.
5. O'quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish.
6. O'quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmatini haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi yetakchilik roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganligidan, uning anchagina qismini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o'quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi.

1. Qiziqarli matematika soatlari va daqiqalari.
2. Matematik to'garaklar uyushtirish.
3. Matematika gazetasi chiqarish.
4. Ekskursiya o'tkazish.
5. Matematik burchak tashkil qilish.
6. Matematika kechalari o'tkazish.
7. Boshlang'ich maktablarda matematika olimpiadasi o'tkazish.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi.

1. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko'nikmalarini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o'quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o'quvchilarning individual talablarini qanoatlantirish maqsadida o'tkaziladi.

3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish shakliga ko'ra darslardan farq qiladi va ko'pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam qiziqarli matematika soatlari va daqiqalaridir. O'quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko'tarinki ruh bilan ishlaydilar. Bunday mashg'ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo'lishi kerak. Bu malakalarda qiziqarli matematikaga doir ko'rsatma qurollar: sanash jadvallari, figuralarni sanash, devoriy oyna formasidagi o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o'quvchilarga katta yordam beradi.(1-rasm)



1-rasm. Matematik bellashuv

Natijalar.

1-sinfda qiziqarli matematika soatlarining taxminiy konspekti.

Bugun biz qiziqarli matematika darsi o'tkazamiz. Nima bilan shug'ullanishimizni siz keyinchalik bilib olasiz. Siz juda ziyarak bo'lishingiz kerak. Siz mening bergan savollarimga o'ylabroq javob bering.

Mening savollarimga birinchi bo'lib kim tez va to'g'ri javob bersa, shu o'quvchi yutib chiqadi.

I. O'ylab top.

Uchta g'oz bizning ustimizdan uchdi, yana uchasi bulut ustidan uchdi. Ikkitasi suv bo'yiga tushdi. Bu g'ozlarning nechtasi havoda qoldi?

II. Quyidagi topshiriqlarni toping va qiziqarli masalalarni yeching.

1. Yo'limni yoritar ikki chiroqcha, chiroqcha ustida pilik qalamcha.

Bular nima? (Ko'z, qosh.)

2. Ikkita uchi bor-u, ikkita halqasi o'rtasida esa bitta mixchasi. Bu nima ekan? (Qaychi)

3. Og'zida uchta tish bor, yegani pichan.

Bu nima ekan? (Panshaxa) Rasmini ko'rsatish kerak.

4. Biri qo'yadi, ikkinchisi ichadi, uchinchisi o'sadi.

Bular nima? (Yomg'ir, yer, o'simlik)

5. Bola o'ndan o'nni tashladi va yana o'nni hosil qildi.

Buni qanday bajargan? (Qo'lqoplarni yechish)

6. Bitta tarelka ichida to'rtta konfet bor, bu konfetlarni 4 o'quvchiga bittadan bering va terekada bitta konfet qolsin.

(Bir o'quvchiga konfet tarelkasi bilan beriladi)

7. Mening sakkizta oshnam

Hammasi mendan kam

Sen o'ngacha sanasang,

Meni aytmay qo'ymaysan.

(To‘qqiz)

III. She‘r bilan aytilgan masalani eshiting va baliqchilar nechta baliq tutganini hisoblang.

Sulton tutdi: 13 cho‘rtan

A‘zam tutdi: 4 sazan

Bolta tutdi: 2 laqqa

Necha baliq chiqdi qirg‘oqqa?

(J: 19 baliq)

IV. “O‘ng tomon, chap tomon” o‘yinini o‘tkazish.

O‘yinning maqsadi: o‘ng va chap tushunchasini mustahkamlashdan iboratdir. O‘ynovchilar soni cheklanmaydi. O‘yinning mazmuni: o‘quvchilar ikki guruhga ajralib, qator turadilar. Har ikki qator boshqaruvchining komandasiga muvofiq, qarama-qarshi tomonga yuradilar. Boshqaruvchining “chapga” yoki “o‘ngga” degan komandasi bilan o‘ynovchilarning hammasi tegishli tomonga buriladilar va to‘xtaydilar. Kim yengilsa, o‘yindan chiqadi. O‘yin esa davom etaveradi. Qaysi guruhdan o‘quvchilar kam chiqarilgan bo‘lsa, shu guruh yutadi.

V. Ikki teng kvadratdan qanday to‘g‘ri to‘rtburchak yasash mumkin?

Mashg‘ulot yakunida umumlashtiruvchi yakun chiqarish kerak. (2-rasm)



2-rasm. Qiziqarli matematika soatlari

Xulosa.

Maktabda matematikadan sinfdan tashqari ishning asosiy formasi matematika to‘garagidir. Maktabda matematika to‘garagi bo‘lmasa, sinfdan tashqari ishlarning boshqa hech qaysi shakli (matematik olimpiada, matematika kechasi o‘tkazish va

matematika gazetasi chiqarish) mumkin bo'lmaydi, chunki maktabda matematika ishlarini tashkil qiladigan aktivlar to'garak a'zolaridan iborat bo'ladi. Matematika to'garagi ishini to'g'ri tashkil qilganda va uni o'tkazish uslubidan to'g'ri foydalanilganda, o'quvchilar matematikaga qiziqish uyg'otish va bu qiziqishni rivojlantirish, ularning bilish aktivlari va matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdiradi, o'z kuchlariga ishonchni, qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf qilish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20-dekabr 2022.

2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) –T.: Turon-Iqbol, 2016. 426 b.

3. Jumayev M.E. Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) –T.: Fan va texnologiya, 2005.

4. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. Matematika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2016. -328 b.

5. Tojiyeva Z.G` va boshqalar. boshlang'ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. –T.: TDPU, 2008.